

---

## **IQTIDORLI VA BILIMLI DOSTONBEK YO'QLANDI**

Xabaringiz bor, Rishtonda tug'ilib o'sgan, FarDUning ingliz tili fakultetini tamomlagan Dostonbek Siddiqov Vetnam davlatida tashkil etilgan "Yil o'qituvchisi" tanlovida ishtirok etib, g'olib sifatida bosh sovrinni qo'lga kiritgan edi.

Bugun tuman hokimi S.Soliev boshchiligida barcha sektor rahbarlari tomonidan o'zining bilimi va iqtidori bilan dunyoni lol qoldirib, yozgi ta'tilda ona yurtiga kelgan Dostonbekni, uning buvisi Hamidaxon aya To'xtasinova yo'qlandi.

Muloqot davrida Dostonbek Vetnam va O'zbekistonda yoshlarning bilim olishlari uchun yaratilgan sharoitlar, o'rtadagi tafovutlar, ayniqsa yurtboshimiz tomonidan bilimli yoshlar hamisha qo'llab-quvvatlanayotgani hech bir mamlakatda yo'qligi haqida to'lqinlanib gapirib berdi.

O'z o'rnida tuman hokimi qahramonimizdek iqtidorli, bilimli, Rishton nomini dunyoga tanitadigan yoshlar safi yanada kengayishi uchun bundan keyin ham barcha imkoniyat va sharoitlar yaratib berilishini ta'kidladi. Hamida aya To'xtasinova yurtimizga tinchlik-omonlik, yurtboshimizga sog'lik-omonik hamda bilimli yoshlar ko'payishini tilab duo qildi.

**Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.**

2022-08-04 14:22:47